

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

DAVLAT VA IXTISOSLASHGAN MAKTABLARDA ADABIYOT O‘QITISH METODIKASI

Sayyora Abdullayeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti

Sayyoraabdullayeva96@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola ixtisoslashtirilgan va davlat maktablarining yuqori sinflarida adabiyot o‘qitish metodikasi farqlari. Ijod va ixtisoslashgan maktablarning maqsad va vazifalari, o‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish bilan bog‘liq muhim masalalarga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, adabiyot, kompetensiya, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, ta’lim shakllari, qobiliyatni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash.

Yoshlarning iste’dodi va qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, ularning ilm-fanni egallashga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorini ro‘yobga chiqarish, uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Yoshlarning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda ularni barkamol, jismonan va ruhan sog‘lom shaxs sifatida Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, bolalarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, fidoyilik, keng dunyoqarashga ega komil inson bo‘lishga intilish tuyg‘usini shakllantirish maqsadida ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi.

Davlatimizda tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim muassasalaridan yana biri Ijod maktablaridir. 2017- yilda tashkil etila boshlagan til va adabiyotni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi” tasarrufiga kiradi. Ijod maktablarining maqsadi va vazifalari:

- Mamlakatimizning turli hududlarida yashayotgan o‘quvchi-yoshlar orasidan badiiy adabiyot va boshqa ijod sohalariga qiziqadigan, iqtidorlilarini saralash, ularadagi iste’dodni yanada rivojlantirish uchun tegishli sharoit yaratish;

- Zamonaviy bilimlarga ega, erkin fikrlaydigan, jahondagi tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan ijodkor yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha ilg‘or pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilish;

- Ijod maktablari o‘quvchilarini barcha sohalar bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarga, keng tafakkurga ega bo‘lgan zamonaviy shaxs sifatida voyaga yetkazish;

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

•Iqtidorli bolalarga ona tili va adabiyot sohasining sir-asrorlarini o‘rgatish bilan birga ularning dunyo tillarini chuqur o‘rganishini ta’minlash, bu bilan kelajakda o‘zbek adabiyoti va san’ati, fan yutuqlarining jahonga keng ommalashishini ta’minlaydigan kadrlarni tayyorlash.

Ijod, ixtisoslashgan maktab o‘quvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ijod va ixtisoslashgan maktablarda adabiyot fanini o‘qitishning asosiy maqsadi – badiiy matnni tahlil qila oladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlangan, fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri hamda ravon bayon qiladigan shaxsni kamol toptirish. Ijod maktablari uchun adabiyot fanidan ta’lim dasturining vazifalari quyidagilardan iborat:

•Milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tahlil qilish va ularga munosabat bildirish kompetensiyalarini shakllantirish;

•Badiiy, publitsistik va ilmiy matnlarni hamda san’at namunalarini qiyoslash orqali tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish;

•Milliy va jahon adabiyoti tarixiy tarqqiyotining umumiy tendensiyalari haqida tasavvur shakllantirish;

•Adabiyot va san’at namunalarini tahlil qilish va qiyoslash orqali o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish;

•O‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ulardagi ijodiy hamda yaratuvchanlik qobiliyatlarni rivojlantirish;

•Guruh bo‘lib ishlash, tanqidiy tahlil va kreativ fikrlash orqali muayyan muammolarga yechim topish, o‘z fikrini adabiy til normalariga rioya qilgan holda yetkazish va dalillash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ijod va davlat maktablari 7-9- sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi va dars tuzilishi farqlari:

Ijod makatblarida adabiyot o‘qitish metodikasi	Davlat maktablarida adabiyot o‘qitish metodikasi
O‘quv yili 34 haftani tashkil qiladi. Adabiyot fani 7-sinflarda 4 akademik soat, 8-9- sinflarda 5 akademik soatdan o‘qitiladi. Bir	O‘quv yili 34 haftani tashkil qiladi. Adabiyot fani 7-8- sinflarda 2 akademik soat, 9-sinflarda 3 akademik soatdan o‘qitiladi. Bir akademik soat

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

akademik soat 40 daqiqani tashkil qiladi.	45 daqiqani tashkil qiladi
O‘quvchilar o‘rganadigan va tahlil qiladigan adabiyot namunalari umumlashtiruvchi ruknlar bo‘yicha joylashtiriladi. Har bir sinfda to‘rttadan rukn va ushbu ruknlar mavzusiga mos turli davrlarda, turli mualliflar tomonidan yaratilgan, turli janrlarga xos asarlar tavsiya qilinadi.	Milliy o‘quv dasturiga kiritilgan asarlar va ijodkorlar o‘qib tahlil qilinadi. Asar tahlili uchun qo‘shimcha soatlar ajratilmagan.

Ijod, ixtisoslashgan maktab o‘quvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmlarini rivojlantirishga yordam beradi. Quyida bunday yondashuvlarni amalga oshirishda foydalanish mumkin bo‘lgan ba’zi strategiyalar keltirilgan:

1. Interaktiv darslar o‘qituvchilar dars jarayonida interaktiv metodlardan, masalan guruhli ish, muhokamava rol o‘ynash kabi usullardan foydalanishlari kerak. Bu o‘quvchilarga bir-birlari bilan fikr almashish va tadqiqot asosidagi bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.

2. Loyihalarga asoslangan ta’lim o‘quvchilarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga undovchi loyihalar ishlab chiqish juda foydali. Bu orqali ular tadqiqotchilik ko‘nikmalarini amalda sinab ko‘rishlari mumkin.

3. Tadqiqot metodologiyasi o‘qituvchilar o‘quvchilarga tadqiqot metodologiyasining asoslarini o‘rgatishi kerak: maqsadni belgilash, gipoteza ishlab chiqish, ma’lumot to‘plash va tahlil qilish kabi jarayonlarni tushuntirish.

4. Texnologiyalardan foydalanish, zamonaviy texnologiyalar (masalan, onlayn resurslar, dasturlar va ilmiy platformalar) orqali o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash zarur. O‘quvchilar internetdan ma’lumot qidirish va uni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

5. Mentorlik tizimi maktabda tajribali ustozlar yoki soha mutaxassislari tomonidan mentorlik qilish tizimini yo‘lga qo‘yish ham foydali bo‘ladi. Ular o‘quvchilarga tadqiqot jarayonida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, ularning motivatsiyasini oshirish mumkin.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

6. Ijtimoiy loyiha dasturlari, ijtimoiy masalalarni hal qilish uchun o‘quvchilarni jamoaviy loyihalarda ishtirok etishga jalb etish ijtimoiy bilimlarini oshiradi hamda ularning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

7. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun ularga turli mavzularda tahliliy maqolalar yozdirishni tavsiya etish yoki munozaralar tashkil etish.